

TURKIY XALQLARDA O'Q-YOYDAN FOYDALANISH XUSUSIDAGI AYRIM MA'LUMOTLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada kamon va o'q uning turkiy xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida tutgan o'rniga oid fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, kamon va o'qning turlari oddiy va murakkab turlarga bo'linishi, oddiy kamon qadimgi davrlarda foydalanilganligi, murakka kamonning tuziligi "M" shaklida bo'lishi, uning paydo bo'lishi, tuzilishi va kamon tayyorlanadigan xom-ashyolar, qaysi daraxt shoxlaridan tayyorlanishi, tayyorlanish texnikasi, o'qlarni tayyorlanishi, ularning turlari, ovda ishlatiladigan, jangda ishlatiladigan kamon o'qlari, hushtakli o'q va uning qo'llanilishi, turkiy xalqlarning jangovarligi, xitoy manbalarida kamon va o'qdan foydalanishi, shu bilan bir qatorda turkiylarda otliq jangchilar va ularning jang vaqtidagi mobilligi (harakatchanligi), ushbu jarayonda otliq kamonchilar va ularning jangni borishiga ta'siri masalalari ochib berilgan. Jang vaqtida kamondan o'q uzishda Xitoy manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra jangchining chap yelka qismi kiyimi yechilgan holda bo'lishi, bu kamondan o'q uzish texnikasining bir qismi ekanligi, ijtimoiy nuqtai-nazardan esa eng qadimgi davrlardayoq kamon va o'q urug'-qabilalarning turli darajada ekanligi, ijtimoiy hayotda ustun yoki quyi darajada ekanligini anglatishi yoki qo'shinni o'ng yoki chap qanot qismini tashkil etishi turli rivoyat va afsonalar asosida keltirib o'tilgan. Bundan tashqari G'arbiy Turk hoqonligida butun urug'-qabilalarni ikki qismga besh o'qdan o'n o'qqa bo'lganligi, bu kamon va o'qning turkiylarning ijtimoiy hayotini asosiga singgan ekanligini ko'rsatib beruvchi omil ekanligi keltirib o'tilgan. Bir so'z bilan aytganda, kamon va o'q turkiy xalqlarning xo'jalik-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim ahamitga ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kamon, o'q, chavandoz, murakkab kamon, o'q turlari, hushtakli o'q, "o'g'uz", "Hoqon toshi", Xitoy manbalari, kul daraxti (yasen), muxuashi (tosh daraxt), "Dogal ok"

НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЛУКОВ И СТРЕЛ ТЮРКСКИМИ НАРОДАМИ

Аннотация. В данной статье представлены мнения о роли лука и стрел в социально-экономической и политической жизни тюркских народов. Рассматриваются также разделение типов луков и стрел на простые и сложные, использование простых луков в древности, структура сложного лука в форме буквы «М», его появление, строение и сырье, из которого изготавливается лук, из каких древесных ветвей он сделан, техника изготовления, изготовление стрел, их типы, стрелы, используемые в охоте и бою, стрела-свисток и её применение, боевой дух тюркских народов, использование луков и стрел в китайских источниках, а также вопросы, касающиеся конных воинов у тюрков и их мобильности в бою, роли конных лучников в этом процессе и их влияния на ход сражения. Согласно китайским источникам, при стрельбе из лука во время боя левое плечо воина было обнажено, что являлось частью техники стрельбы из лука. С социальной точки зрения, с древнейших времен лук и стрелы означали, что племена находились на разных уровнях, были выше или ниже по социальной лестнице, или составляли правое или левое крыло армии, как говорится в различных легендах и мифах. Кроме того, упоминается, что в Западно-Тюркском каганате все племена были разделены на две части, от пяти до десяти, что указывает на глубокую укорененность лука и стрел в социальной жизни тюрков. Вкратце, лук и стрелы играли важную роль в экономической, социально-политической и культурной жизни тюркских народов.

Ключевые слова: Лук, стрела, всадник, составной лук, типы стрел, свистящая стрела, «огуз», «хакан тоши», китайские источники, ясень (ясен), мухуаши (каменное дерево), «догал ок».

SOME INFORMATION ABOUT THE USE OF BOWS AND ARROWS AMONG THE TURKIC PEOPLES

Abstract. This article presents opinions on the role of the bow and arrow in the socio-economic and political life of the Turkic peoples. It also discusses the division of bow and arrow types into simple and complex types, the use of simple bows in ancient times, the structure of the complex bow in the form of an "M", its emergence, structure and raw materials from which the bow is made, which tree branches it is made of, the preparation technique, the preparation of arrows, their types, bow arrows used in hunting, used in battle, the whistle arrow and its use, the fighting spirit of the Turkic peoples, the use of bows and arrows in Chinese sources, as well as the issues of mounted warriors among the Turks and their mobility during battle, mounted archers in this process and their influence on the course of battle. According to Chinese sources, when shooting from a bow during a battle, the warrior's left shoulder was undressed, which is part of the technique of shooting from a bow, and from a social point of view, from the most ancient times, the bow and arrow meant that the tribes were at different levels, were superior or inferior in social life, or formed the right or left wing of the army, as cited in various legends and myths. In addition, it was cited that in the Western Turkic Khaganate, all tribes were divided into two parts, from five to ten, which is a factor indicating that the bow and arrow were deeply rooted in the social life of the Turks. In short, the bow and arrow played an important role in the economic, socio-political and cultural life of the Turkic peoples.

Keywords: Bow, arrow, rider, compound bow, arrow types, whistling arrow, "oghuz", "Khaqan toshi", Chinese sources, ash tree (yasen), muhuashi (stone tree), "Dogal ok".

Kirish. O'q-yoy insoniyat tarixida uzoq vaqt foydalanilgan qurollardan biri bo'lib, uning paydo bo'lishi mezolit davri deb hisoblanadi. Dunyoning turli mintaqasida yashovchi xalqlarning ushbu qurolni tayyorlash texnikasi, materiallariga qarab undan o'q otish masofasi, foydalilik ko'rsatkichi turli mintaqalar va xalqlar kamonini turlicha xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlagan. Markaziy Osiyo hududida yashagan turk-mo'g'ul xalqlari kamonlari o'zining tuzilishi va mustahkamligi, zarbasi kuchi kabi xususiyatlari bilan boshqa mintaqalardagi kamonlardan ustunlik qilgan. ayniqsa, bir necha qismdan iborat holda va M shaklida tayyorlangan murakkab turdagi kamon va undan uziladigan o'qning zarba kuchi raqiblarni hayratga solgan. Shuningdek, o'qning ham ishlatilishiga qarab o'nlab turlari bo'lganligini ko'rish mumkin. Ushbu maqolada turk-mo'g'ul xalqlarining o'q-yoydan foydalanishi va ushbu qurollarni tayyorlanishi bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar sharhi. Ilk o'rta asrlarda turk-mo'g'ul xalqlari, ularning jangovar san'ati va ayniqsa o'q-yoydan foydalanishlariga oid ma'lumotlar Xitoy manbalarida ko'plab uchraydi. Xususan, "Eski Tan tarixi" asari Tan sulolasining rasmiy tarixi bo'lib, ushbu davlat turklar bilan xo'jalik-iqtisodiy, madaniy va harbiy jihatdan o'zaro munosabatlarga kirishgan. O'zaro urushlar davrida turkiy xalqlarning jang olib borish usullari o'rganilgan bo'lib, keyinchalik ular rasmiy sulola tarixi asariga ham kiritilgan. Shuningdek, Du You qalamiga mansub chegaradagi xalqlar asarida ham turkiylarning chavandozligi, o'q-yoydan mohirona foydalana olishiga oid misollar ko'plab keltirilgan. Bu haqda ko'plab Xitoy yozma manbalarida keltirib o'tilgan.

Yozma manbalardagi ma'lumotlarni arxeologik izlanishlar va tarixiy tadqiqodlar natijasida yuzaga kelgan asarlar ham tasdiqlaydi. Yu.S. Xudiyakovning "VI-XII asrlarda Yeniseybo'yi qirg'izlarining qurollari" asarida, o'q yoy va uning ko'chmanchilar hayotidagi o'rni va roli ochib berishga qaratilgan bo'lsa, shu muallifning "Markaziy Osiyo ko'chmanchilarining ilk va rivojlangan o'rta asrlardagi qurollari" asarida kamonning vujudga kelishi, Markaziy Osiyoda tarqalishi, murakkab kamon va uning turlari, o'qlar va uning turlariga oid arxeologik

ma'lumotlarga tayanilgan fikr-mulhazalar keltirilgan. Yu.Sh. Agayev izlanishlarida o'q-yoy turkmo'g'ul qabilalarida ijtimoiy mavqeni belgilashga, hokimiyat ramzlari ekanligi, marosimiy ahamiyati ochib berilgan bo'lsa, A.G. Malyavkinda turlicha kamon va o'qlarning tayyorlanishi va ular tayyorlanadigan xom-ashyolarga urug' berilganligini ko'ramiz.

Natijalar va munozaralar. Turkiy xalqlar o'zlari yashagan hududlar tabiiy shart-sharoitidan kelib chiqib, chorvachilik xo'jalik turini yuritganlar. Chorvachilikda yilqichilik alohida ahamiyat kasb etib, yosh-baquvat otlarni jilovlash va chavandozlik dasht turkiylarining asosiy mashg'ulotlari hisoblangan. Shu bilan bir qatorda chorva mollari, urug'-qabila chorvasi boqiladigan yaylovini, o'zlarini xavfsizligini ta'minlashda ham turkiylar mohir bo'lib, bu sohada ularning asosiy quroli o'q-yoy hisoblangan. Kamon va o'q turkiy xalqlarning hayotiga shu qadar mustahkam o'rnatilganki, u urug'-qabila ma'nolariga ham kirib borgan. Jumladan, o'q-urug' ma'nosini anglatishi, O'g'uzxon haqidagi rivoyatlarda oltin kamon katta o'g'illariga, o'qlar eka kichik o'g'illarga tegishi, bu ijtimoiy tartiblarga ishora ekanligi, G'arbiy Turk hoqonligining o'n o'qqa bo'linishi kabilar Yu.Sh. Agayev tadqiqodlarida keltirib o'tilgan[1]. Taniqli xitoyshunos olim A.G. Malyavkin keltirib o'tgan ma'lumotlarda ham turkiychada "o'g'uz" atamasi ittifoq ma'nosini bildirib, "o'q" kamon o'qi va urug' nomini "g'uz" ittifoq ma'nosini bildirgan degan fikr-mulohazalarni qayd etib o'tgan[5, 166]. Shu bilan bir qatorda o'q va kamonlarning ham turlari xilma-xil bo'lganligi ma'lum. Xitoy tarixiy adabiyotlarining birida; "ular (turklar)ning qurollari kamon, o'q, hushtakli o'q (isqiriqli o'q)" bo'lishi keltirilgan. Shuningdek, o'q-yoydan boshqa qurollari sifatida qilich, nayza, xanjar bo'lishi, himoya quroli sifatida sovut keltirib o'tilgan.[8] Har bir o'q turining jangda qo'llanilish tartibi, vazifasi bo'lib, ular qo'shinining u yoki bu qismiga jangni borishi xususidagi o'zgarishlar buyrug'ini anglatgan. Turkiylarda harbiy qurol aslaha turlari xitoyliklarniki kabi ko'p bo'lmasada, turkiylarning asosiy kuchi otda tez chopib keta turib kamonda o'q uzishda bo'lgan. Tez yugira oladigan otlar esa jang vaqtida qo'shinni harakatchanligini ta'minlagan. Bu xususda "Eski Tan tarixi" manbasida ham keltirib o'tilgan. Ushbu asarda turklarni qadimgi Hun qabilalarining bir tarmog'i ekanligi qayd etilib, ularning hayotida harbiylik ustivor mavqega ega ekanligi, yigitlarining ot minish va kamondan o'q otishga mohir bo'lishi, asosiy harbiy quroli o'q-yoy ekanligi, yurishlari shamoldek tez bo'lib, dasht bo'ylab qayerda suv va yaylov bo'lsa ko'chib yurishlari bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud[9, 194]. Ammo, kamondan o'q otishning ham o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud bo'lib, uzoq yillik mashg'ulotlar orqaligina mohir kamonchi bo'lish mumkin bo'lgan. Turklarning deyarli hammasi chavandozlik va kamonchilikda mohir bo'lgan. Bu birinchi navbatda turmush va xo'jalik yuritish tartibidan kelib chiqqan. Shu sababli Xitoy manbalarida turkiy qabilalarning kamonchilari o'n minglab bo'lishi qayd etib o'tilgan. Xitoy yilnomasida turklar orasida yosh-qarining harbiy mashg'ulot o'tashi keltirilib, kigiz va charmdan tikilgan matolardan kiyim kiyishi, kiyimlarining chap tomoni ochiq qolishi bilan bog'liq ma'lumotlar yozib qoldirilgan[10, 215]. Kiyimni chop tomoni ko'krak va belgacha ochiq qoldirish kamondan o'q uzishda kiyimning yoqa, yeng qismlari kamon yoki o'qqa tegib, o'qning uchish trayektoriyasining o'zgarishiga sabab bo'lmasligi zaruratidan qilingan.

O'rta asrlarda jangdagi harakatchanlik katta ahamiyatga ega bo'lib, jangchilarning chavandoz va mohir kamonchi bo'lishi jang va urush taqdiriga katta ta'sir ko'rsatgan. Turkiy xalqlarning mohir chavandoz va kamonchi ekanliklari va ularning jang vaqtidagi tezligi, harakatchanligi xitoylik sarkardalar, muarrixlarni hayratda qoldirgan. Misl tariqasida uyg'urlar haqidagi ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tish lozim. "Uyg'urlar turklarning bir tarmog'i bo'lib, ot minish va kamon otishda mohir edilar. Ularning askarlari shafqatsiz va jasur, zirhlari charmdan yasalgan va kamon va o'qlardan mohirona foydalanishgan. Ularning boshliqlari qabilalarga bo'lingan qo'shinni boshqarganlar"[11, 217]. Yoki yana bir joyda, "Ularning odamlari va otlari kuchli va sog'lom bo'lib, kuniga yuzlab li(里) masofani bosib o'tishga qodir edilar. Jangda ular aylana shaklida o'q otib, shamol kabi oldinga intilishardi[12, 215]. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, uyg'ur otliqlari va kamonchilarning tezkor hujumlari va dushmanni ta'qib qilishlari tasvirlanish jarayonida chavandoz va kamonchilar mahorati ham ko'rsatilib o'tilgan. Uyg'urlar (Tan imperiyasi davri manbalarida Xuyxe) xususida keltirilgan ko'pdan-ko'p jasurliklari,

shijoatkorliklari, mohir chavandoz, kamonchi, saralangan va qudratli askar ekanliklari bilan bog'liq ma'lumotlardan tashqari Tan imperiyasi (618-907 yy) mavjud bo'lib turgan davrda, imperiyaga qarshi ko'tarilgan yirik qo'zg'olon An Lu-shan qo'zg'oloni (756-758 yy)ni bostirganliklariga oid ma'lumotlar ham diqqatga sazovor. O'shanda endigina tashkil topgan Uyg'ur hoqonligining to'rt ming kishilik saralangan otliq jangchilari Tan imperiyasining ulkan qo'shinlari bir necha yil bostira olmagan qo'zg'olonni qisqa muddatda bostirgani va va ikki poytaxtni (Changan va Luoyang) qayta egallashda yordam berganliklari Xitoy manbasida keltirib o'tilgan[13]. Bir so'z bilan aytganda, otliqlar va kamonchilar o'rta asrlardagi jang harakatlarini borishini tubdan o'zgartira olgan deb xulosa qilish mumkin.

Xitoy yilnomalari va tarixiy adabiyotlarda alohida ta'riflangan o'q-yoy va uning ahamiyatiga oid fikr-mulohazalarni o'rganish orqali kamon va o'q, ayniqsa kamon o'qi uchlari nimalardan tayyorlangan?, ularni tayyorlash texnikasi, xom-ashyosi nimalar bo'lganligi bilan bog'liq tabiiy savollar tug'iladi. Tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarda, Turk kamoni chinor, qayin va kul daraxti (yasen) kabilarning yog'ochlaridan tayyorlangan. Shoxlar uchun ishlatiladigan yog'och taxtalar uzoq vaqt quritilgandan so'ng, kerakli egrilikka erishish uchun pishirilgan va bir-biriga bog'langan. Shoxlar tutqichga - kamonning o'rta qismiga - yopishtirilgan va shox plitalari shox uchlari yopishtirilgan. Yelim qoldiq tendondan qilingan. Kamonning ichki qismida chuqurcha ochilgan, unga shox plastinkasi yopishtirilgan. "Madyan" deb nomlangan yog'och kamon ipi qopqog'i shoxlarning uchlari yopishtirilgan. Kamon butunlay qayin po'stlog'i bilan qoplangan va namlikdan himoya qilish uchun bir necha qatlam yog'och lak bilan bo'yalgan. Kamon ipi quritilgan qo'chqor yoki ho'kiz terisi yoki ichakdan tayyorlangan. Cho'zilganda, kamonning shoxlari oldinga egilgan, bu esa tortish og'irligini oshirishga imkon bergan. Bunday kamonlarning tortish og'irligi 80 kg ga yetgan[2, 47]. Turklarni kamonlarining tayyorlanishi bir necha qismdan iborat bo'lib, yog'och, suyak, shox, qayin po'stlog'i, pay va charmdan yig'ilgan. O'q uchlari maqsadi va shakliga qarab, bir necha turga bo'lingan. Keng jarohat yetkazish uchun ikki pichoqli uchli o'q ishlatilgan bo'lsa, uch yoki to'rt qirrali o'qlar zirhlarni teshish uchun ishlatilgan. O'q uchlari metaldan tashqari suyak, shox va yog'och o'q uchlari ham ishlatilgan. "Dogal ok" deb nomlangan silindrsimon yog'och o'q uchlari odamni otdan yiqitish va ov uchun ishlatilgan. Muguz (jonivorlarning shoxi)dan tayyorlangan kamonlar ham bo'lib, Sulek (Yenisey daryosining yuqori oqimidagi irmoqlardan biri) daryosi bo'yidagi qoyatosh tasvirlarda ularni tayyorlash texnikasi tasviri topilgan[3, 77]. Bu holatda kamon bir necha qismlardan iborat bo'lib, murakkab kamon turiga kirgan.

1939 yilda Kopena qishlog'i yonidagi qazishmalarda S.V. Kiselev tomonidan topilgan tasmaning bronza to'g'asi va undagi tasvirda turk kamonchisining tasviri keltirilgan. Tasvirda, jangchining kostyumi to'liq, aniq va tiniq holda tasvirlangan. Uning kamoni tuzilishi murakkab bo'lib, "M" harfi shaklini eslatib, to'g'a VII asrga tegishliligi aniqlangan. Olimlarning fikricha, dasht mintaqalarida VII-VIII asrlarga oid kamon va o'q uchlari umumiy ko'rinishga ega bo'lgan[4, 32-33]. Bir qator olimlar jumladan, L.A. Yevtyuxova, S.V. Kiselev va L.R. Kizlasovlar kabilari mustahkamlangan murakkab kamonlar xunlar (mil.avv III – milodiy II asrlar) mavjud bo'lgan davrlarda vujudga kelgan degan fikr-mulohazalarni keltirib o'tganlar[6, 24]. Yu.S. Xudyakov keltirgan ma'lumotlarda esa, Xunn-turk kamoni milodiy birinchi ming yillikda Markaziy Osiyo mintaqasida keng foydalanilgan. Murakkab o'q-yoydan foydalanishni ayrim olimlar fikricha dastlab, ilk o'rta asrlar Kurikan (hozirgi Yoqut xalqi ajdodlari) qabilalari foydalana boshlagan degan fikr-mulohazalarni ham uchratish mumkin[7, 20]. Kamon o'qining uchlari tayyorlash ashyolari to'g'risida ham tarixiy adabiyotlarda turlicha ma'lumotlar keltirilgan. Kamon o'qi uchlari ashyosi odatda temir, suyak, toshlardan tayyorlangan. Ayniqsa, jang vaqtida qo'llaniladigan o'qlarning uchi temirdan tayyorlangan bo'lib, sifati bir qadar pastroq bo'lgan tosh va suyak uchli o'qlar odatda ov vaqtida ishlatilgan. Shuningdek, yog'och uchli o'qlar ham tayyorlangan bo'lib, ayrim yog'och uchli o'qlar mustahkamligi haratlanarli darajada bo'lganligini tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Taniqli olim A.G. Malyavkin "Hoqon toshi" deb nomlangan yog'och o'qi uchlari haqida ma'lumot keltirgan. "Hoqon toshi"ning paydo bo'lishi haqida keltirilgan ma'lumotlarda, bahorda darax shoxidan ajralgan qatronni suvga tomchi sifatida

82 tushgandan keyin uning toshga aylanishi, uni topish ancha qiyin bo'lishi, Amur daryosining yuqori oqimlaridagi irmoqlarda bo'lishi, undan tayyorlangan kamon uchi o'qlari temirdek mustahkam bo'lgan. Xitoy tarixiy adabiyotlarida, Amur daryosi yuqori oqimida muxuashi (tosh daraxt) deb nomlanuvchi xom-ashyosi mavjud bo'lib, undan kamon o'qlari uchini tayyorlanishi, bu o'qlar temirni ham tesha olishi, tosh daraxt mahsulotini qazib olishdan olishdan oldin ruhlarga ibodat qilishiga oid ma'lumotlar ham mavjud[5, 142]. bir so'z bilan aytganda yog'och o'q uchlari ham janglarda qo'llanilgan deb xulosa qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kamon va o'y turkiy xalqlarning xo'jalik, turmush sharoitidan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etgan. O'q-yoy jangda, ovda keng qo'llanilgan bo'lib, ijtimoiy hayotda urug'-qabilalarning mavqeini ham bildirgan. Kamon va o'qning turlari bir necha xil turlari bo'lib, ularni tayyorlanishi va xom-ashyosi ham turlicha ekanligi, tayyorlanish usullari ham turlicha bo'lganligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агаев Ю.Ш. Лук и стрелы как символы власти и элементы ритуального обряда у тюркских народов // <https://cyberleninka.ru/article/n/luk-i-strely-kak-simvoly-vlasti-i-elementy-ritualnogo-obryada-u-tyurkskih-narodov>
2. Аствацатурян Э.Г. Турецкое оружие в собрании Государственного Исторического музея // Э.Г. Аствацатурян. - СПб.: ТПГ Атлант, 2002. - 335 с.: цв. ил.: 27 см.
3. Гумилёв Л.Н. Қадимги Турклар. – Т.: Фан, 2007. - 498 б.
4. Евтюхова Л.А., Киселёв С.В. Чаа-гас у села Копёны // Тр. ГИМ, вып. XI. Сборник статей по археологии СССР. - М.: ГИМ, 1940. - С. 21-54.
5. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. - Новосибирск: Наука. Сиб. отд-ние, 1989. - 432 с.
6. Худяков Ю.С. Вооружение енисейских кыргызов VI-XII вв. - Новосибирск: Наука, 1980. - 176 с.
7. Худяков Ю.С. Вооружение центральноазиатских кочевников в эпоху раннего и развитого средневековья. – Новосибирск: Наука Сиб. Отд-ние, 1991. - 190 с.
8. Du You. Tongdian (通典), 197-juan (卷一百九十七). "Chegaradagi xalqlar" (Biānfáng 邊防), 13-qism. "Turklar" (Tūjué Shàng 突厥上). Pekin: Zhonghua Shuju nashriyoti, 1988-yilgi qayta nashr (yoki an'anaviy to'plamlarda: Siku Quanshu nashri).
9. 劉昫等撰. 《舊唐書》 (Jiu Tang shu – "Eski Tang tarixi"). — 北京: 中華書局, 1975. — 卷194下, 〈突厥傳〉
10. 歐陽修, 宋祁撰. 《新唐書》. — 北京: 中華書局, 1975. — 卷215上-下 〈突厥傳. ("善騎射" — ot ustida mohir o'q uzish; tezkor hujum va chekinish taktikasi qayd etiladi.)
11. 歐陽修, 宋祁撰. 《新唐書》. — 北京: 中華書局, 1975. — 卷217上 〈回鶻傳上. ("善騎射, 兵制嚴明" — Uyg'ur qo'shinlari ot ustida mohir, harbiy tuzilma qat'iy va boshqaruv tizimi mavjud.)
12. 歐陽修, 宋祁撰. 《新唐書》. — 北京: 中華書局, 1975. — 卷215下 〈突厥傳下. ("善騎射, 急襲敵人" — otliq kamonchilik va tezkor hujum, dushmanni ta'qib qilish usullari tasvirlangan.)
13. Du You. Tongdian (通典), 198-juan (卷一百九十八). "Chegaradagi xalqlar" (Biānfáng 邊防), 14-qism. Uyg'urlar" (Huíhé 迴紇). Nashr: Zhonghua Shuju (Pekin), 1988, 5437-b.